



KOREYS LINGVOMADANIYATIDA NUNCHI (KO'Z BILAN HIS QILISH)  
SAN'ATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Qutbiddinova Moxiraxon Faxriddin qizi

Makkiii2008@gmail.com

+998 90 788 7279

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada koreys lingvomadaniyatidagi nunchi (눈치), ya'ni "ko'z bilan his qilish" tushunchasining ijtimoiy muloqot va lingvopragmatik xulqda namoyon bo'lishi tadqiq qilinadi. Nunchini rivojlantirish omillari, ijobiy va salbiy ijtimoiy oqibatlarini, shuningdek, uning madaniyatlararo muloqotdagi o'rni ko'rsatib beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *koreys madaniyati, nunchi, ko'z bilan his qilish, xulq-atvor, ijtimoiy ong, noverbal signal, madaniyatlararo muloqot.*

Noverbal kommunikatsiya kishilar o'rtasidagi noverbal xabarlar almashinuvi va ularning talqinini bildiradi. Har bir madaniyat borliqini o'ziga xos belgilar va ramzlar yordamida aks ettirgani uchun ham noverbal muloqot yuzaga chiqadi.

Noverbal kommunikatsiya noverbal vositalar yordamida amalga oshiriladi. Noverbal vositalar deganda jestlar (tana, qo'l harakatlari), imo-ishoralar (mimika), tegish (qo'l tegizish, quchoqlash, silash, o'pish va h.k.), tana holati, kishilar orasidagi masofa kabilar tushuniladi [Usmanova: 2018: 55].

Antropologlar Koreyani "yuqori-kontekstli madaniyat" sifatida ta'riflaydilar. Bu shuni anglatadiki, muloqot ochiq so'zlardan ko'ra ko'proq ohang, sukunat, vaqtni sezish va imo-ishoralarga tayanadi. Shu bois koreys lingvomadaniyatida noverbal signallarni tez sezib olish san'ati ham keng tarqalgan. Bunday san'atlardan biri "nunchi" (눈치) bo'lib, u koreys lingvomadaniyat "ko'z bilan his qilish", "muqobil hislar yordamida sezish", "vaziyatni o'qish", "xulq-atvor belgilarini sezib, javob berish" kabi ma'nolarni o'z ichiga oladi.

Nunchi atrofdagi muhit va odamlarni sezish qobiliyatini bildiradi. Odatda, nunchi boshqalarining his-tuyg'ularini va niyatlarini darhol seza bilish va unga moslashish san'ati sifatida tariflanadi.

Nunchiga ega bo'lgan kishi hech kim bir og'iz so'z gapirmaganida ham uning his-tuyg'ularini, reaksiyalarini ilg'ay oladi. Bu "ijtimoiy ong" yoki "hissiy intellekt" tushunchalariga yaqin, biroq nozik ishoralariga yanada ziyrak e'tibor qaratishi va guruh uyg'unligi bilan kuchliroq bog'lanishi bilan farqlanadi. [<https://stay.enko.kr/blog/what-is-nunchi-korean-culture>].

Demak, koreys muloqotida *nunchi* juda yuqori qadrlanib, u kishilarning kayfiyati, muhiti, ruhiy holatini bilishga qaratilgan noverbal signallarni tez sezib olish san'ati hisoblanadi. Binobarin, Koreyada hech kim sizga ochiq bir shaklda, to'g'ridan-to'g'ri,





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



noto'g'ri narsa bo'lganini aytmadi. Biroq muloqot jarayonida birdaniga suhbatning susayib qolgani seziladi. Bunday holatlarda muloqot ishtirokchisi: “Men qandaydir ishorani o'tkazib yubordimmi? Noodatiy ish qildimmi?” deb hijolat bo'ladi. Suhbat chog'idagi bunday taranglikning yuzga kelishi ko'pincha tasodifiy bo'lmaydi. Zero, Koreyada sukunat va nozik signallar so'zlardan ko'ra ko'proq ma'no ifodalaydi. Ana shu yerda *nunchi* boshlanadi.

Koreys tilida *nunchi* (눈치): *nun* (눈) – “ko'z” hamda *chi* (치) – “o'lchov, his qilish, taxmin qilish” so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, “ko'z bilan his qilish”, “ko'z bilan o'lchash” kabi ma'nolarni ifodalaydi.

*Nunchi* so'zining shakllanish tarixi XVII asrga borib taqaladi. Ba'zi manbalarda *nunchi* “ko'z kuchi / kuchli nazar” ma'nolarini ifodalaydigan 眼勢 so'zidan qayta shakllangan degan qarashlar mavjud.

Tarixan *nunchi* yosh, iyerarxiya va guruh rollariga katta e'tibor berilgan jamiyatda shakllangan. Konfutsiy an'analari hukmron bo'lgan jamiyatda yoshlardan kattalar yoki rahbarlarning biron bir ehtiyojlarini ular aytmaslaridan oldin sezib olishlari kutilgan. Keyinchalik bu oddiy odob qat'ilashib, gapirilmagan narsalarga diqqat qilish madaniy odatiga aylangan. Bu esa o'z navbatida, guruh uyg'unligini saqlash va mojarolardan qochishga yordam berdi.

Quyida ayrim misollarni ko'rib chiqamiz:

1. Koreys tilida *이건 좀...* [*igeon jom*] tugallanmagan jumla hisoblanadi. Unung so'zma-so'z tarjimasini: “Bu biroz...” bo'lib, ko'pincha bu muloyim rad etish uchun yetarli bo'ladi. Masalan:

A: “우리 다 주말에 여행을 갑시다!” [uli da jumale yeohaengeul gabsida] “Hammamiz dam olish kunida sayohatga boraylik!”

B: “음... 이건 좀...” [*igeon jom*] “Hmm... Bu biroz...”

Haqiqiy ma'nosi: “Men bormasam yaxshi bo'lardi”.

Ko'rinadiki, bu misolda rad etish yumshatilgan bo'lib, u yaxshi nunchiga ega odam uchun yetarli darajada tushunarli bo'ladi.

2. Koreys tilida eng noaniq ifodalardan biri *괜찮아요* [*gwaenchanayo*] “Hammasi joyida” iborasidir. Ushbu iborani, ayniqsa, chet elliklar tomonidan tushunilishi juda qiyin kechadi. *괜찮아요* [*gwaenchanayo*] iborasi “Meni rostdan ham e'tirozim yo'q”; “Biroz xafa bo'ldim, lekin chidashim mumkin”; “Aslida yaxshi emasman, lekin muammo chiqarmayman” ma'nolarini anglatishi mumkin. Shu bois mazkur iboraning haqiqiy ma'nosini faqat kontekstga ko'ra aniqlashtirish mumkin. Masalan:

A: “청소 도와드릴까요?” [cheongso dowadeulilkkayo] “Yig'ishtirishga yordam beraymi?”





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



B: “아니예요, 괜찮아요.” [aniyeo gwaenchanhayo] “Yo‘q, hammasi joyida”.

Mazkur javob rostdan yoki yo‘lg‘ondan aytilgan bo‘lishi mumkin. Bu yerda ohang, yuz ifodasi va vaqtni tanlash juda katta ahamiyatga ega. “Koreyslar gap orasidagi ma‘noni eshitadilar”.

Kundalik hayotda nunchidan turli vaziyatlarda foydalaniladi. Odatda, dasturxon atrofidagi suhbat chog‘ida gapirayotgan kishining gapini bo‘lmasdan nutqining tugatishini kutib turish va undan so‘ng fikr bildirish lozim. Kimdir oshxonaga kirib kelganda ichkaridagi holatni kuzatib, jim turishi yoki ovozini pasaytirish joiz bo‘ladi. Ish sharoitida rahbarning yuz ifodasi, ovoz ohangi, umuman, noverbal harakatlarini kuzatish orqali uning kayfiyatini sezish va shundan so‘ng qanday harakat qilishga qaror berilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi [<https://www.ciee.org/go-abroad/college-study-abroad/blog/hidden-power-nunchi>].

Ijtimoiy yig‘inlarda esa suhbat mavzusi o‘zgarishini sezish, kimdir noqulay ahvolga tushishi mumkinligini payqab, mavzuni yumshatish mumkin.

Nunchini rivojlantirish uchun quyidagilarga diqqat qaratish lozim bo‘ladi:

1) *Diqqat bilan kuzatish.* Insonlarning yuz ifodasi, ko‘z qarashi, tana a‘zolarining harakati, ovoz o‘zgarishlari kabi noverbal signallarni sezish.

2) *Sukut saqlash va tinglash.* Gapirishdan ko‘ra ko‘proq tinglash va kuzatish.

3) *Vaziyatga moslashish.* Qachon, qayerda va kim bilan muloqot qilishga qarab, o‘sha kontekstga mos xatti-harakatlarni amalga oshirish.

4) *Ehtiyotkorlik bilan ochiq muloqot qilish.* Agar muloqot jarayonida biror narsa noaniq bo‘lsa, ehtiyotkorlik bilan savol berish mumkin. Masalan: “Siz qanday o‘ylaysiz?”, “Bu o‘rinda nima qilish yaxshi bo‘lardi?” kabi.

5) *O‘z his-tuyg‘ularingizni anglash.* Kishi o‘zining kayfiyati, reaksiyalarini ham sezishi kerak. Shunda boshqalarning holatini hurmat bilan tushunishi osonroq bo‘ladi.

Nunchining yuqorida qayd etilgan ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, ayrim ehtiyotlik bilan yondashish kerak bo‘lgan tomonlari ham mavjud. Ular quyidagicha namoyon bo‘ladi:

1) *Chalg‘itish.* Nunchiga o‘ta suyanib qolish natijasida noverbal signallar noto‘g‘ri talqin qilinib, yanglish xulosalarga kelish mumkin.

2) *Shaxsiy erkinlikning cheklanishi.* Har doim boshqalar kayfiyatini oldindan sezib, o‘z fikringni ochiq aytmalik insonda ichki stress yoki norozilik kayfiyatini paydo qilishi mumkin.

3) *O‘zga madaniyatdagi tushunmovchilik.* Chet elliklar yoki boshqa madaniyat vakillari uchun bu tushuncha chalkash yoki noqulay bo‘lishi mumkin. Binobarin, aksariyat madaniyatlarda fikrni “to‘g‘ridan-to‘g‘ri” ifodalash afzal ko‘riladi.

4) *O‘zlikni yo‘qotish xavfi.* Har doim o‘zgalarga moslashish, boshqalar xohishini bajarish shaxsiyatga zarar yetkazishi mumkin.

Muxtasar qilib aytganda, nunchi koreys madaniyatining markaziy va ko‘p qirrali tushunchasi bo‘lib, uni to‘liq anglash uchun fanlararo yondashuv (tilshunoslik,



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



lingvomadaniyatshunoslik, madaniyatlararo muloqot, sotsiologiya, psixologiya va h.k.) talab qilinadi.

Umuman, nunchi san'ati jamiyat ichidagi nizolarni kamaytirish, kishilar orasidagi munosabatlarni yumshatish va muvozanatni saqlash imkonini beradi. Ish muhitida rahbariyat va hamkasblar bilan yaxshi munosabatlar o'rnatishga yordam beradi. Atrofdagi insonlarga nisbatan empatiya (tushunish, his qilish) darajasini oshiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmanova Sh., Rixsiyeva G. Madaniyatlararo muloqot. – Toshkent: TDSHI, 2018.
2. Euny Hong. The Power of Nunchi: The Korean Secret to Happiness and Success. – Penguin Random House, 2019.
3. <https://stay.enko.kr/blog/what-isnunchi-korean-culture>
4. <https://koreatlas.com/korean-nunchi-meaning>
5. <https://www.ciee.org/go-abroad/college-study-abroad/blog/hidden-power-nunchi>

